SHERMUHAMMAD MUNIS IJODIDA SHARIATNING TASAVVUFIY TALQINI

Sadoqat Otamuratova,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti doktoranti
e-mail: sadoqatotamuratova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shermuhammad Munis ijodida shariat tushunchasining tasavvufiy-ma’naviy talqini yoritiladi. Shoir asarlarida shariat inson ruhini poklashga xizmat qiluvchi dastlabki bosqich, axloqiy mezon hamda ma’rifat sari eltuvchi yo‘l sifatida talqin etiladi. Munis shariatni faqatgina diniy amallar majmui sifatida emas, balki insoniylik, adolat va muhabbatga asoslangan ma’naviy tizim sifatida anglaydi. Uning she’riyatida Qur’on oyatlari va hadislar mazmuni ramziy-poetik ifodalar orqali berilib, shariat tasavvuf ta’limotining asosiy tayanchi va ma’naviy markazi sifatida ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *shariat, tasavvuf, ruhiy poklanish, axloqiy me’yor, ma’rifat, Qur’on, hadis, g‘azal.*

Kirish. Sharqda tasavvufni adabiyotsiz, badiiy ijodni tasavvufsiz tasavvur etib bo‘lmasligi o‘rta asrlardanoq e’tirof etilgan edi. Tasavvuf nazariy bilimlardangina iborat bo‘lmay , balki uning amaliy talablari ham bo‘lib, ular bevosita ustoz rahbarligida amalga oshirilgan.

Mavlono Jaloliddin Rumiy “Masnaviy” ning muqaddimasida yozadi: “Shariat shamga o‘xshar, yo‘l ko‘rsatar. Ammo shamni qo‘lga olmoq bilan yo‘l ochilmas. Yo‘lga tushdingmi, bu yurushing tariqat erur, maqsadga erishdingmi bu – Haqiqatdur… Shariat bilimdir. Tariqat – tutmoq, Haqiqat – Tangriga yetishmak”.[3:10]

Ammo shuni unutmaslik kerakki, bu darajalarni barchasi shariatning mahsulidir. Shariatsiz tariqatga kirib bo‘lmaydi.

“Bir soatlik ilm majlisi, yetmish yillik ibodatdan afzaldir” deydi, xalqimiz. Demak, avval shariat ahkomlarini yaxshi o‘rganib, so‘ngra tariqat yo‘liga kirish kerakligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu kabi shariat hukmlarini o‘rganishda biz shayxlarning gaplariga emas, faqihlarning gaplariga quloq solishimizda namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. “Darhaqiqat, avval sha’riy ilmni o‘rganib olmagan kishi ibodatni o‘rinlatib ado eta olishi mumkin emas. Shuning uchun ham katta shayxlar o‘zlariga qo‘l berib, ibodatga o‘zlarini bag‘ishlamoqchi bo‘lgan kishilarni oldin sha’riy ilmlarni egallab olishga undaganlar”.[4:76]

Ka’bayi maqsud sari tutsang agar nogoh yo‘l,
Anda bo‘l sobitqadam, chiqma qarog‘a sog‘-u so‘l. [1:398]

Baytda yo‘lga kirish bosqichi ya’ni shariat bosqichi nazarda tutilgan. Solik “Ka’bai maqsud”ni – Allohga yetishishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Solik sabr, poklik va e’tiqod bilan yo‘lga kiradi. Demak, Allohga yo‘l shariat qonunlariga mos yurishni, halol, to‘g‘ri, sof niyatli bo‘lishni talab qiladi

Faroshi bid‘at o‘lub dahrdin nuri diyda,
Bisoti shar‘i sharafing chu aylading mabsut. [1:320]

Baytda sizning sharafingiz bilan bid’at (yolg‘on yo‘llar) yo‘qoldi, shariat esa yanada nurlandi, ya’ni Munis shariatning mukammalligining Rasulullo orqali isbotlaydi. Bu fikr “shariat – haqqa olib boruvchi yo‘lning darvozasi” ekanligini ta’kidlaydi.

Zihi, risolating elga dalili rohi faloh,
Erur saodat uyiga shariating masboh. [1:228]

Mazkur baytda “risolat” Payg‘ambar alayhissalomning ilohiy vazifasi sifatida qilingan, ya’ni najot yo‘liga boshlovchi sifatida. “rohi faloh” esa ma’rifatga eltuvchi yo‘l sifatida qaralgan. Saodat uyiga eltuvchi nur ya’ni ko‘rsatgich esa shariat deya fikr yuritillgan. Shoir birinchi baytda risolat – saodat eshiklarini ochuvchi yo‘l, ikkinchi baytda shariat – yo‘lni yorituvchi yoritgich sifatida tasvirlagan.

Rusumi sunnating oyinayi hidayatdur,
Nechukkim mehri tul’k’ida mazhar o‘ldi saboh. [1:228]

Baytda sunnatning mohiyati hidoyatni aks ettiruvchi oyinaga qiyos qilingan. Ikkinchi misrada esa mana shu fikr dalillanadi, ya’ni tong nurining ko‘zguda porlashi, sunnat mo‘minning hayotini nurga to‘ldirishiga o‘xshatiladi.

Mahv qil oynayi dil din g‘ubori shakku rayb,
Toki bo‘l‘g‘oy jilvagar anda jamoling sirri g‘ayb. .[1:167]

Ushbu baytda ham insonning shariat bosqichida poklanishi haqida so‘z boradi. Qalb g‘ubor va shubhadan tozalanmas, ekan u yerda Alloh jamolining nuri aks etmaydi.

Shoir naznida shariat – bu insonni poklovchi va Alloh tomon boshlovchi yo‘lning boshidir. U insonni qalbini poklaydi, nafsni tarbiyalaydi. Munis g‘azallarida shariatning asoslarini ko‘rsatuvchi baytlar ko‘plab uchraydi. Bu baytlar insonning o‘zini anglashga, Allohni bilishga tayyorlovchi vositadir.

Eyki, zulm-u kin erur o‘yin sango,
Zulmdur tark ayla demak kin sango.[1:64]

“Kin” va “zulm” kabi hislardan poklanish shariat amallarining bir qismi, maqsadi desak ham bo‘ladi. Baytda bu hislardan yiroq bo‘lish shariat buyurgan amal bo‘lishidan tashqari, insonni axloqan va ma’nan poklaydi. Shoir fikricha “kin” insonni Haqdan uzoqlashtiruvchi g‘ubor bo‘lsa, “zulm” esa to‘siqdir. Shariat yo‘li esa insonni poklaydi va mana shu to‘siqlarni olib tashlaydi. Shoir uchun ham shariat – tashqi amaldan tashqari, ichki poklanish hamdir.

O‘rgatur dushman sango rasmi jafo,
Do‘st yo‘q qilsa vafotalqin sango. [1:64]

Shariatda sabr qilish, adolat ko‘rsatish, zulm qilmaslik asosiy vazifalardir. Baytda esa “dushman” – nafs, “jafo” esa sinovdir. Shoir dushman senga jafo qilsa ham, bu Allohning rahmati bo‘lishi mumkinligiga ishora qilgan. Jafoni sabr orqali yengish esa oriflikning boshlanishi sanaladi. Demak baytda sabr tarbiyasi, imtihon kabi masalalar qalamga olingan.

Zahri hajring birla komim talx erur,
Qilmoq osundur oni shirin sango. [1:64]

Shariatni biz ibodat va tavba holi desak ham bo‘ladi. Chunki, ushbu baytda “hajr” Allohdan uzoqlik ya’ni zaharga qiyos qilingan. “shirin” esa Allohga yaqinlik holati hisoblanib talqin qilinsa, Allohga yaqinlik ibodat va tavba orqali bo‘lishi qalamga olingan. Ya’ni barchasining asosi ixlosdadir. Baytda Allohdan uzoqlashish va yaqinlashish bir biriga qarama qarshi qo‘yilgan.

Man desam chin, yolg‘on anglarsan ani,
Desa dushman yolg‘on, uldur chin sango. [1:64]

Men chin so‘zlasam ham sen unga ishonmaysan, agar dushmaning yolg‘on gapirsa ham unga rostdek ishonishing mumkin. Bu bayt haqiqat bosqichidagi “chin”ni anglash haqida bo‘lsa ham, avvalo shariat bosqichida sabr qilishga undash ya’ni haqiqat yuzaga chiqquncha sabr qilishga chorlangan.

Xo‘blar ishqin deding, ey shayx, kufr,
Bo‘ldi ma’lumkim, yo‘qdur din sango. [1:64]

Ushbu misralarda shoir soxta shayxlarni qalamga oladi. Baytda shariatni to‘liq tushunmay, uni o‘ziga niqob qilib olgan soxta shayxlar, “xo‘blar ishqi” – Alloh ishqini “kufr” deya ataydilar. Shoir uchun shariat faqat tashqi amallar emas, balki Allohga muhabbat va ixlos bilan qilinadigan amallar, qonunlar majmuidir.

Munisng‘a ber zakoti husnkim,
Ul erur bir oshiqi miskin sango. [1:64]

Bu yerda shariat amallaridan zakot haqida so‘z borgan, bayt mazmuniga o‘xshatish, qiyos usullari orqali singdirilgan va baytning mazmundorligi oshirilgan. O‘ziga Alloh jamolidan zakot so‘rayotgan shoir o‘zini “miskin” ya’ni Alloh oldida o‘zini kibrdan holi, ojiz deb biladi.

Ki, sochin ochti-yu ko‘rguzmadi ruxsor mango,
Baytul ehzonni yovuqdirdi, boshinga yiqqali.[1:138]

Xulosa. Shermuhammad Munis ijodida shariat – bu insonni axloqan yuksaltiruvchi, jamiyatda adolatni barqaror qiluvchi ilohiy nizomdir. Uning she’rlarida “g‘urur”, “tavozu”, “ibodat”, “sabr”, “haq yo‘li” kabi tushunchalar shariat mezonlari bilan bog‘liq holda ishlatiladi.

Shermuhammad Munis ijodida shariat – inson ruhining birinchi poklanish bosqichi, axloqiy me’yor, ma’rifat sari boshlovchi nurli yo‘l sifatida talqin qilinadi.

Uning asarlarida shariat nafaqat diniy majburiyat, balki insoniylik, adolat va muhabbat tizimidir. Munis o‘z she’rlarida Qur’on va hadislar mazmunini poetik timsollar orqali yoritib, shariatni tasavvufning yuragi sifatida ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek adabiyoti xazinasidan. Shermuhammad Munis. 37-tom. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2025.
2. Dilorom Salohiy. Tasavvuf – komil axloq ilmi. Samarqand: “Turon nashr”, 2025.
3. Mavlono Rumiy. Masnaviy. V jild. Istanbul,1990.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvur haqida tasavvuf. Toshkent: “Hilol-nashr”, 2024.